

YOLG'IZ KEKSALARNI TIBBIY-IJTIMOYIY SOGLOMLASHTIRISHNING ALTERNATIV SHAKLLARI

АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ ФОРМЫ МЕДИКО-СОЦИАЛЬНОГО ОЗДОРОВЛЕНИЯ ОДИНОКИХ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ

ALTERNATIVE FORMS OF MEDICAL AND SOCIAL HEALTH CARE FOR LONELY ELDERLY

Xusanova Xayriniso Tayirovna – s.f.d., dotsent
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
E-mail: husanovahayriniso@gmail.com, tel: +998997201031

Xusanova X.T. (2024). YOLG'IZ KEKSALARNI TIBBIY-IJTIMOYIY SOGLOMLASHTIRISHNING ALTERNATIV SHAKLLARI. Actacamu, 7(7), 175–179. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14139464>

Annotatsiya. Maqolada keksa yoshli avlod vakillarining ijtimoiy tibbiy xususiyatlari sotsiologiya, ijtimoiy gerontologiya, tibbiyot fanlari kesimida tahlil qilingan. Keksalar yoshlilar orasida yolg'izlikdan aziyat chekayotgan qatlamlarni ijtimoiy sog'lomlashtirish tadbirlariga jalb qilish orqali ularda hayotiy faollikni rag'batlantirish va sog'lig'ini tiklash masalalariga ilg'or tajriba tahlili asosida yondashilgan. Maqolada sotsiologiya, ijtimoiy gerontologiya fanlarida qo'llaniluvchi tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan holda metodologik xulosalar shakllantirilgan. Shuningdek, maqolaning empirik bazasini hosil qilishda statistik ma'lumotlar va rasmiy ko'rsatkichlar asosida amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar. Keksalik, yolg'iz keksalik, sotsiologiya, ijtimoiy gerontologiya, ijtimoiy tibbiy xizmat, ijtimoiy rehabilitatsiya, sog'lomlashtirish, faol keksalik, mobil ijtimoiy xizmatlar.

Аннотация. В статье проанализированы социально-медицинские особенности представителей старшего поколения в разрезе социологии, социальной геронтологии, медицинских наук. Практический анализ показал, что пожилые люди должны поощрять свою жизнедеятельность и восстанавливать свое здоровье, привлекая к мероприятиям по оздоровлению социально уязвимых слоев населения. В статье сформулированы методологические выводы с использованием системного подхода, применяемого в социологии, социальной геронтологии, методов сравнительного анализа. Также разработаны практические предложения и рекомендации по формированию эмпирической базы статей на основе статистической информации и официальных показателей.

Ключевые слова. Старость, одинокая старость, социология, социальная геронтология, социальная медицинская служба, социальная реабилитация, оздоровление, активная старость, мобильные социальные услуги.

Abstract. The article analyzes the social and medical characteristics of the older generation in the context of sociology, social gerontology, and medical sciences. Practical analysis has shown that older people should encourage their vital activity and restore their health by involving socially vulnerable groups of the population in health improvement activities. The article formulates methodological conclusions using a systems approach used in sociology, social gerontology, and comparative analysis methods. Practical proposals and recommendations for forming an empirical base of articles based on statistical information and official indicators have also been developed.

Key words. Old age, lonely old age, sociology, social gerontology, social medical service, social rehabilitation, health improvement, active old age, mobile social services.

Kirish. Aholi tarkibida keksalar ulushining oshib borish ko'rsatkichlari XX asrning 60-yillaridan boshlab dunyo olimlari diqqatini jalb qilib boshladi. Chunki, aynan ushbu davrdan boshlab dastlab rivojlangan davlatlarda aholi tarkibida keksa yoshlilar ulushining o'sish tepmlari kuzatildi. Bunda ikki ziddiyatli

demografik jarayon ya'ni, tug'ilish darajasining tushib ketishi va umr davomiyligini uzayib borish tendensiyalari katta rol o'ynadi. Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotining tahlillariga ko'ra, keksa yoshlilar dunyo aholisi tarkibida 1990 yilda 0,5 mlrd,ni tashkil qillgan bo'lsa, 2100 yilda esa 3,2 mlrd bo'lishi kutilmoqda. BMT ning ma'lumotlariga ko'ra, 2050 yilga kelib 65 yosh va undan kattalar ulushi dunyo aholisi jami soni kesimida 1,6 mlrd.ga oshib borishi prognozlanmoqda [1]. Dunyo aholisi tarkibidagi o'zgarish tendensiyalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan zaruratni oshirib yubordi.

Dunyo davlatlarida o'zgaralar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish muammosi daolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zgaralar ko'magiga muhtoj bo'lgan yolg'iz va nogironligi bo'lgan keksalarni ijtimoiy himoyalashda tibbiy ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, reabilitatsiya protseduralarini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish hamda yolg'iz keksalarni xonadonlarda maishiy ko'maklashish zaruratini oshiradi. Ayniqsa, keksalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishda mahallalarda ma'naviy ma'rifiy va madaniy tadbirlarni tashkil qilish orqali hayotiy faolligini oshirish mumkin. Shuningdek, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni yashash va shaxsiy gigiena shart sharoitlarini, shuningdek, xonadonlarda xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirishda alternativ metodikalarni xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish orqali ishlab chiqish zaruratini oshiradi.

Xususan, sotsiologiya fani doirasida mazkur masalada olib borilgan tadqiqotlar sotsial gerontologiya tarmoq yo'nalishi doirasida qayd etilgan davrda bir muncha jadallashdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tarixiy davrlarda keksalikning ijtimoiy funksiyasi keksa inson tomonidan o'z hayotiy tajribasini "transmissiya"si, ya'ni avlodlarga uzatish bilan cheklangan deb hisoblangan. Ammo zamonaviy yosh kategoriyalaridagi transformatsiyalar ijtimoiy makonda keksalarning sotsial maqomida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda va faol keksayish tendensiyalari dolzarblashmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dastlab, sotsial gerontologiya fanlararo tadqiqotlar yutuqlaridan foydalangan holda E.Kamming va U.Genri tomonidan keksalikning rolli modelini ommalashuviga sabab bo'ldi. Ularning fikriga ko'ra, keksa yoshlilarning jamiyatdagi ijtimoiy majburiyatlardan ozod bo'lishi ijobiy holat sanaladi [2]. Birmuncha keyingi tadqiqotlarda (D.Xevigxerst, R.Albrext) ushbu yondashuvga zid ravishda keksalikni faollik va ijodkorlik davri sifatida talqinlash tendensiyalari kuzatildi [3]. Bugungi kunda postmodernistik kayfiyatdagi yondashuvlarning hosilasi sifatida keksalik sotsiomadaniy konstruktda eskicha stereotiplardan holi va zamonaviy demografik, ijtimoiy psixologik shart sharoitlarga moslashuvchan qatlamga aylanib bormoqda.

Ijtimoiy gerontologiya fani kesimida Sh.Sodiqovning fikrlariga ko'r, farzand qanchalik ota onaga muhtoj bo'lsa, ota ona keksayganda farzandlarning yordamiga shunchalik ehtiyoj sezadi. Zamonaviy taraqqiyot shart sharoitida kishilarning bandligi oshib boradi. Rivojlangan davlatlarda o'ta bandlik sababli farzandlar o'zlarining keksaygan ota onalariga zaruriy parvarishni vaqtida bera olmaydi. Shu sababli, keksalarni ijtimoiy himoya qilish modellaridan Shvesiyada farzandlari band bo'lgan keksalarni ijtimoiy xizmat markazlari tomonidan kunduzgi xizmat ko'rsatiladi. Bunday xizmatlar ko'لامي va turlarini tanlash bepul yoki pullik xizmat shakllarini tanlash orqali amalga oshiriladi.

Bir guruh olimlar olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, keksalarda yolg'iz qolishdan qo'rquv hissi oshib boradi (S.Shilina, A. Nikitina). Shu sababli keksalarda doimiy muloqotda bo'lish, sog'lig'i va maishiy barqarorlik tuyg'usini ta'minlanganlikdan kuchli aloqadorlik bo'ladi. Bunda, keksalarning mahalliy jamoalarlarda doimiy muloqotda bo'lishi, ularga ijtimoiy tibbiy, ijtimoiy maishiy xizmatlarni ko'rsatish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish orqali muloqotga bo'lgan ehtiyojini qoplash talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Keksalik davri sotsiologik nuqtai nazardan ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlardan biri sifatida alohida o'rganiladi. Ijtimoiy himoya konseptual jihatdan keksa inson va uning ehtiyojlarini yaxlit qabul qiliadi. Shu bois keksa inson shaxsiyatiga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'linadi. Keksalarni ijtimoiy himoyalash tarmoq sotsiologiyasi nuqtayi nazardan "Ijtimoiy himoya sotsiologiyasi" doirasida quyidagi darajalariga muvofiq quyidagi maxsus sotsiologik modelni hosil qiladi.

1) umummetodologik daraja – keksalarni ijtimoiy himoyalashni ilmiy o'rganishda multidissiplinar metodlarga tayanish;

2) tarmoq sotsiologiyasi – ijtimoiy himoya sotsiologiyasi doirasidagi sotsial gerontologik nazariyalar;

3) empirik daraja – amaliy sotsiologik tadqiqot metodlari yordamida keksalarni ijtimoiy himoyalash sohasini sotsiologik diagnostikasini amalga oshirish o'zaro aloqadorlikda metodologik va metodik bazasini hosil qiladi.


Albatta, ushbu darajalar uzviy bog'liqlikda o'zining tom ma'nodagi ilmiy-amaliy kuchini namoyon etadi. Ijtimoiy himoya sotsiologiyasining obyekti, aholini ijtimoiy himoyalash tizimi, predmeti ushbu tizimning ko'p qirrali funksiyalari, xususan, ijtimoiy tahlikalar va ularning salbiy oqibatlaridan jamiyat, xususan, alohida shaxslarni himoyalash va qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy kayfiyat barqarorligini ta'minlash sanaladi. Ijtimoiy tahlikali vaziyatlarning oldini olishda ijtimoiy integratsiya va reabilitatsiya usullari qo'llaniladi. Tizimning ichki funksiyalari bo'lgan ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoya, ijtimoiy xizmat orqali amalga oshiriladi. Ilmiy hisob-kitoblar asosida yuritilgan manzilli ijtimoiy himoyada konkret shaxsning murakkab hayotiy vaziyatidan kelib chiqiladi va bu bilan ijtimoiy adolat tamoyillarining tantanasiga xizmat qiladi.

Keksalik davri ilmiy kategoriya sifatida birgina sotsiologiya doirasida qolmaydi va demografiya, falsafa, tarix, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, psixologiyada fanlararo tadqiqotlarga turtki beradi. Bu akademik ilm-fan doirasida yaqqol sezilmoqda va aholining turli qatlamlarini o'rganishda integratsiyalashgan ilmiy yondashuvlarning kompleks ahamiyatli obyekti sifatida dolzarblashmoqda.

Yolg'iz keksalarni ijtimoiy himoyalash sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ijtimoiy himoya va tibbiy ijtimoiy yordamning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirishda yangi yondashuvlarni joriy etish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Dunyo davlatlari ichida aholi tarkibida keksa yoshilar ulushining kattaligi Yaponiyada 45,9% ko'rsatkich bilan birinchilikni egallaydi. Xitoyda 35,4%, Turkiyada 29,4% keksa yoshlilar tashkil qilmoqda [4]. Mamlakatimizda sog'liqni saqlash vazirligining ma'lumotlariga ko'ra 55 yoshdan oshgan 3 mln. 200 ming nafarga yaqin pensiya yoshidagi nuroniylar bor [5]. So'nggi prognozlariga ko'ra, faol bandlik ko'rsatkichlarida ko'tarilishi kuzatilmoqda. Xitoyda 12%, Rossiya, AQShda o'rtacha 20%, Germaniyada 25% pensiyadagi keksa yoshli ishlaydigan kishilar ulushini tashkil qildi. Demak, 18-44 yoshlar, 45-59 o'rta yoshilar, 60-74 yoshlilar qariyalar, 75-90 yoshlilar keksalar, 90-109 yoshilar uzoq umr ko'ruvchi nuroniylar, 109 yoshdan ortganlar super uzoq umr ko'ruvchilar sifatida qayta klassifikatsiyalangan [6].

MDH Statistika qo'mitasining ma'lumotlariga muvofiq, Hamdo'stlik davlatlari tarkibiga kiruvchi mamlakatlarda (shu jumladan, O'zbekiston) mehnat yoshidagi 20-59 yoshli aholi miqdori ko'pchilikni, ya'ni 58,3%ni tashkil etdi. Yosh ko'rsatkichlari bo'yicha O'zbekistonda 0-19 yoshlilar 38%, 20-39 yoshlilar (yetuklik davrining birinchi bosqichi) 35%, 40-59 yoshlilar (yetuklik davrining ikkinchi bosqichi) esa 24%ni tashkil qilmoqda [7]. Demak, yetuklik yoshi nuqtayi nazaridan 20-59 yoshlilar mamlakatimizda 59%ni tashkil etayotgan bo'lsa, ilmiy tadqiqotimizda o'rganilayotgan 60-85 yoshdagi keksa yoshlilar deyarli 10%ni tashkil qilmoqda. Mamlakatimizning aholi yosh tarkibida o'zgarishlar mustahkamlanib bormoqda. YUNISEF tomonidan ishlab chiqilgan 4 bosqichli demografik prognozlariga muvofiq, mamlakatimizda yosh qatlamlari ulushi 2048-yilda keksa yoshlilar miqdorining ko'tarilishi kutilmoqda (1-rasm) [8].



1-rasm. O'zbekistonda yosh kesimida aholi tarkibining statistik ko'rsatkichlari, %.

Bunda 4-19 yoshli bolalar va o'smirlar jami aholi sonining 37,1%; 20-34 yoshli yoshlar – 25,4%; 35-59 yoshli o'rta yoshlilar – 28,7%; 60-84 yoshlilar 8,6%; 84 yoshdan kattalar – 0,2% tashkil qilmoqda. Natijada, bugungi kunda o'rta yoshlilar ulushi yoshlarga nisbatan 3,3% o'sganligini ko'ramiz. Demak, istiqbolda yetuk yoshdagi aholining nufuzi yanada o'sib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Mehnatga layoqatlilik ko'rsatkichi bo'yicha aholi tarkibining 31,2% – mehnat yoshiga yetmagan bolalar, 57,6% – mehnat yoshidagi yetuk qatlam, 11,2% – mehnat layoqatiga ega yoshdan keksalar tashkil qiladi [9].

O'zbekistonda keksa yoshli aholi sog'lomligi va faol keksalikni ta'minlash maqsadida "Aholi salomatligi 2030" milliy strategiyasi 2024-2026 yillarga mo'ljallangan chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Unga ko'ra, har yili 4,6 mln nafar 55 va undan katta yoshdagi aholini profilaktik ko'rikdan o'tkazildi. Biroq ularning ichida o'zgaralar parvarishiga muhtoj bo'lgan soni oshib bormoqda. Ijtimoiy himoya milliy agentligining ma'lumotlariga ko'ra ularning soni 18 417 nafarga yetdi. Ularni asosan yolg'izlik, salomatlik va xavfsizlik masalalari, harakatlanish cheklanganligi, kundalik uy ishlarini bajarishda qiyinchilik, noto'g'ri ovqatlanish, xotira susayishi, firibgarlik va suiste'mollarga qarshi zaiflik, o'z o'zini parvarish qilaolmaslik sababli nafaqat oila a'zolari, balki ijtimoiy xodimlarning parvarishiga muhtoj bo'lib qolmoqda [10]. Tizimdagi asosiy muammolardan biri bu yolg'iz keksalar bo'yicha aniq ma'lumotlarning yetishmasligi, turli idoralarning ma'lumotlar bazasida nomutanosibliklar uchrab turmoqda. Shu bois, agentlik tomonidan keksalarning haqqoniy elektron bazasini shakllantirish ishlari davom etmoqda.

Ahamiyatli jihatlaridan biri keksa yoshdagi aholi salomatligini baholash tizimini joriy etish ko'zda tutilmoqda. Keksalar yoshdagi aholi jismoniy faolligini oshirish bo'yicha mahallalarda sharoit yaratish va rahbatlantirish mexanizmlarini joriy etish mo'ljallangan "Keksalik gashti" yengil sport musobaqalari o'tkazib boriladi. Mamlakatimizda keksa kishilarni huquqiy, ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda ijtimoiy himoya qilish tizimi, ularning ijtimoiy faolligini oshirish bilan bog'liq muammolarga ilmiy yechim topish va amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Xulosa. Yolg'iz keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda alternativ shakllarini ishlab chiqish ushbu sohada amalga oshirilayotgan chora tadbirlarning sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda aholi turmush sifati va darajasini oshirish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarining samarasi sifatida kishilarning umr ko'rish davomiyligi oshib bormoqda. Demak, mamlakatimizda keksalar avlod vakillari sonining oshib borish tendensiyalari kuzatilmoqda.

Farzandlari bo'lsa da ularning bandligi bois, doimiy parvarishga muhtoj bo'lgan keksalar uchun xonadonlarda mobil ijtimoiy xizmat ko'rsatish davr talabi bo'lib qolmoqda. Ushbu xizmat turi markazlashgan shaharlarda yo'lga qo'yilgan bo'lsada mamlakatimizning chekka hududlarida kutilgan natijalarni bermayapti. Ayniqsa, kundalik maishiy yumushlarni bajarish, oddiy tibbiy muolajalarni qilish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, keksalarni kundalik bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishda turli mashg'ulotlar bilan band qilish kabi protseduralarga ehtiyoj oshib bormoqda.

Yurtimizda yolg'iz keksalar va niogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning alternativ shakllari ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning jadallashuvchiga xizmat qiladi. Bunda keksa yoshli kishilarning doimiy parvarish turlariga aniqlik qiritish, ularning individual ehtiyojlaridan kelib chiqib, ijtimoiy tibbiy, ijtimoiy sog'lomlashtiruvchi dasturlarni markazlar kesimida ishlab chiqiladi. Har bir keksa yoshli kishilarning ijtimoiy sog'lomlashtirish markazlarida statsionar yoki muddatli tarzda farzandlari / yaqin qarindoshlari yoki mahalla yetiligi tarkibidagi "Inson" markazlari ijtimoiy xodimlari orqali aniqlash va ularni bu markazlarda ko'rsatilayotgan xizmatlar bilan tanishtiriladi. Ularning markazlarda qanday muddatlarda bo'lishi va ko'rastiladigan xizmatlarning shakllari keksa yoshlilarning individual ehtiyojlarini baholash orqali ochilgan yakka tartibli ish daftalarida qayd etiladi va yuritiladi.

Ijtimoiy sog'lomlashtirish markazlarida bo'lish orqali keksa yoshli kishilarning hayotiy qiziqishlari tiklanadi, ularning tibbiy sog'lomlashtirish va ruhiy tetikligi qo'llab quvvatlanadi. Ijtimoiy fodyalaliklik ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida kundalik qo'l mehnatiga asoslangan kichik ishlab chiqarish turlariga jalb qilinadi. Jismoniy tetiklikni saqlab turish uchun maxsus trenajer va yengil jismoniy mashqlar tatbiq qilinadi.

Yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarning hayotiy faolligini oshirishda oilaviy maishiy va bo'sh vaqt hordiqni mazmunli tashkil qilishda keksayishning individual tarzda kechish asoslarini chuqur bilish va keksalarning individual ehtiyojlarini baholashni talab etadi. Bunda ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni baholash mezonlarini milliy mentalitet va turmush tarzi kesimida ishlab chiqish, ularga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlarining xodimlarini bu borada bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan trening kurslari

orqali amalga oshirish mumkin. Keksalarga vaqtinchalik (kunduzgi statsionar) shaklda ijtimoiy sogʻlomlashtiruvchilik va tibbiy profilaktik va sanitar gigienik yordam koʻrsatiladi.

Ijtimoiy sogʻlomlashtiruvchilik markazlarida esa keksalarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga qaratilgan maʼnaviy, madaniy tadbirlar, toʻgarak va hunarmandchilik mashgʻulotlari olib boriladi. Bunday muassasalar NNTlar shaklida faoliyat yuritishi yoki mahalla fuqarolari yigʻinlari binosida marakazlashgan holda “Inson” markazlari ijtimoiy xodimlarining tashkilotchiligida olib borilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. В ООН предлагают конкретные меры для поддержки стареющего населения планеты / Организация Объединенных Наций [официальный сайт] – Режим доступа: <https://www.un.org/development/desa/ru/about> (дата обращения 17.03.2023)
2. Cumming Э., Henry W. (1961). Growing old: the process of disengagement. New York: Basic Books, 1961. 310 p.
3. Havighurst R. J., Albrecht R. E. Older people. New York: Longmans & Green, 1953. - 415 p.
4. [1168aab2803e9f43016efe92c8550d07.jpg \(736×278\)](#)
5. Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi
6. Возрастной и половой состав населения мира • География, Мировое население
7. Щербакова Е.М. Демографическая ситуация в странах СНГ, 2014 год // Demoskop Weekly, 2016. – № 675-676. – S. 284.
8. Generation Uzbekistan 2030. Investing in children and young people to reap the demographic dividend. – New York: UNICEF, 2018. – P. 8.
9. Oʻzbekiston Respublikasi davlat statistika qoʻmitasi rasmiy sayti. <http://web.stat.uz/opros/>
10. Хусанова Х.Т. Ўзбекистонда ижтимоий ҳимоя тизимининг ривожланиш тенденциялари //Журнал социальных исследований. – 2020. – Т. 3. – №. 3.